SHASHMAQOM TURKUMIDAGI HUSAYNIY DUGOH SHO‘BASI VA FARG‘ONA – TOSHKENT MAQOM YO‘LLARIDAGI DUGOH HUSAYNIY I NING QIYOSIY TAHLILI.

Hadichaxon MAMADALIYEVA,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti,
“Musiqa san’ati” yo‘nalishi 1 bosqich magistranti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shashmaqom turkumidagi Husayniy Dugoh sho‘basi hamda Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llariga mansub Dugoh Husayniy I ning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonida ushbu ikki sho‘baning lad-parda tizimi, tayanch tovushlari, shakl tuzilmasi, xat va nimxatlar tarkibi hamda doira usullari o‘zaro solishtiriladi. Shuningdek, ularning O‘n ikki maqom an’anasi bilan uzviy bog‘liqligi, tarixiy-nazariy ildizlari va ijrochilikdagi o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Tahlil natijasida Husayniy Dugoh sho‘basining murakkabroq shaklga egaligi, namudlarning keng qo‘llanilishi, Dugoh Husayniy I ning esa soddaroq, xalqchillikka yaqin tuzilishga ega ekanligi aniqlanadi. Har ikki sho‘baning umumiy musiqiy asoslari yaqin bo‘lsa-da, ularning ichki shakliy rivoji, usul va ijro xususiyatlarida muayyan farqlar mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Shashmaqom, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari, Husayniy Dugoh, Dugoh Husayniy I, maqom, sho‘ba, parda tizimi, tayanch parda, daromad, miyonxat, dunasr, avj, furovard, usul, aruz vazni, ijrochilik an’anasi.*

O‘zbekistonning boy madaniy merosi, musiqiy an’analari asrlar davomida xalqimizning ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallab kelgan. Ayniqsa, milliy musiqamizning yuksak namunasi bo‘lgan maqom san’ati xalqimizning dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari va tarixiy tafakkurining musiqiy ifodasidir.

Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari O‘zbekiston musiqiy madaniyatining beqiyos yodgorliklari sifatida nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyo ilmiy jamoatchiligida e’tirof etilgan.

Yurtimizda mustaqillik yillarida milliy san’at va madaniyatga bo‘lgan e’tibor izchil ravishda ortib bordi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3391-sonli qarorida qayd etilishicha, “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatda e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir”1. Ushbu qarorda milliy maqom san’atini yuksalishi, maqomlarni saqlash, targ‘ib qilish va o‘rgatish jarayonlariga mustahkam poydevor bo‘lib, maqom ijrochiligini, balki uning ijodkorligi va ilmiy rivojlantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbek maqomoti orasida Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq, ushbu maqom yo‘llari yaxlit bir turkumni tashkil etmaydi, balki alohida-alohida, katta-kichik kuy, ashula namunalaridan iboratdir. Fargona-Toshkent maqom yo‘llari xalqchilligi va soddaligi bilan o‘ziga xosligini ifoda etadi va tarqoq holda rivojlanib kelgan.

Is’hoq Rajabovning “Sharq musiqa atamalarining qisqacha lug‘ati” kitobida uning bir necha ma’nolari ma’lum bo‘lib, ular quyidagilar: “Dugoh (fors-tojik. Ikki joy, o‘rin, parda) 1. Butun tonni tashkil etadigan ikki parda, sent miqdori 0-204. 2.

1 “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori: https://lex.uz/docs/-3581613?ONDATE=03.02.2022

O‘n ikki maqom majmuasida ma’lum sho‘ba nomi. 3. Shashmaqom majmuasida to‘rtinchi maqom. 4. Maqomlar asosiy tovushlar tuzilmalarining ikkinchi pardasidan boshlanadigan tovush qator va unga asoslangan kuy, ashula. Masalan: Dugoh Husayniy maqomining ikkinchi pardasi kabi. 5. O‘zbek musiqa merosidagi ko‘p qismli surnay yo‘llaridan birining nomi. Surnay Dugohi”2.



“Maqomlar” haqidagi monografiyasida esa bu maqomning tuzilishi va ma’nolariga kengroq ta’rif beradi. U quyidagilarni keltiradi va ud sozining pardalaridan chiqarib olinishi, unga nazariy tahlil berar ekan, uning parda tizimi haqida ham o‘zining fikrlarini bayon etgan. “Dugoh so‘zi tovush hosil qilinadigan ikki parda ma’nosini anglatadi. Ya’ni butun ton orasida ikki turli tovushlarni hosil qiladigan joy (parda)lar Dugoh sho‘basi demakdir. U ud sozining A+D (0-204) va X-Ya (498-702) ^ 204 ^ 204 pardalarida chiqarib olinadi. O‘rta Osiyo va Hurosonda ikki pardada ijro etiladigan kuy va ashulalar uchramaydi, balki bunday tovushlar birikmasi kuylarning boshlanish pardalari bo‘lib xizmat etish mumkin. Dugohning “ikkinchi parda” ma’nosi ham bor”3. Ikkisi ham bir muallif qalamiga mansub bo‘lsada, lug‘atda qisqa va aniq ta’rif berilgan, “Maqomlar” monografiyasi nazariy tadqiqot bo‘lganligi sababli kengroq nazariyasini, qaysi pardalardan chiqarib olganligini aytib o‘tadi. Demak, Dugoh bu- “ikki o‘rin”, “ikki parda” ma’nosini bildirib, u maqomning ikkinchi parda ma’nosida ham kelishi mumkin, alohida maqom sifatida ham kelishi mumkin. Endi bu ikki so‘zning O‘n ikki maqom

2 Ражабов И. – Шарқ мусиқа атамаларининг қисқача луғати. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир Юнусов. Р. - Тошкент. Тамаддум нашрёти. 2023. 62-бет.

3 Ражабов. И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир Иброҳимов. О. – Ташкент: “Санъат”. 2006.103. –б.

davridan beri yashayotganligiga e’tiborimizni qaratsak. U paytlar Dugoh O‘n ikki maqom tarkibida Husayniy alohida maqom nomini, Dugoh esa sho‘ba nomini anglatgan edi.

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridagi yirik turkumlardan biri – Dugohi Husayniy deb nomlanib, VI qismni o‘z ichiga olgan 4 deb yuritilsa ba’zi manbalarda yeti qismdan iborat Dugoh Husayniy ashula yo‘llari5 deyiladi.

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llaridagi Dugoh Husayniyning sho‘bachalari Bayot, Chorgoh maqomlaridagi kabi bir – biridan sonlari bilan ajratiladi va Dugoh Husayniy I-II-III-IV-V-VI deb yuritiladi. Uning ashula yo‘llarida Dugoh maqomining sho‘balari qatorida taronalari ham foydalanilgan. Dugohi Husayniyning shaxobchalari ishlanish tartibi nuqtai nazaridan Bayot va Chorgoh yo‘llariga o‘xshaydi. Dugoh Husayniy I – Saraxbor usulida, uning ikkinchisi Savt, keyingi shaxobchalari Qashqarcha doira usulida ijro etiladi. Dugohi Husayniyning Ufari bo‘lsa, Navo maqomining Ufari Bayotiga va uning Farg‘ona-Toshkent variantidagi Bayot IV-V yo‘llariga o‘xshaydi. Dugohi Husayniyning hamma shaxobchalari xalqning eng sevimli ashula yo‘llaridandir.

Shashmaqom tarkibidagi maqomlardan biri Dugoh maqomi. Uning aniq boshlanadigan pardadan, musiqa nazariyasi qoidasi bilan aytganda to‘rt parda ya’ni to‘rt parda avj joyi keladi va o‘sha demak Dugoh pardasi hisoblanadi. Husayniy esa O‘n ikki maqomda Husayniy maqomiga taaluqli ekanligi va Husayniyda Dugohga o‘xshash, oxirida to‘rttinchi pardaning yarmi ishlatilishidir. Bunday pardalar Sabo pardasi va Husayniy pardasi boshqa maqomlardagi pardalardan

4 Ражабов. И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир Иброҳимов. О. – Ташкент: “Санъат”. 2006.285, 292-b.

5 Қаранг: Юнусов. Р. Ўзбек мақомлари . — Т., “Ўзбекистан” нашрёти., 2018. — 44 б.

o‘zini nafisligi bilan, kishiga ta’sirchanligi bilan ajalib turadi”6. Shuning uchun sof Dugoh pardasi emas, Dugoh Husayniy, yoki Husayniy Dugoh deb ataladi.

Husayniy Dugoh kuy tuzilmasi ancha murakkab, uning yoqimli va jozibali ashula yo‘lidan biri deyish mumkin. Ushbu asar ashula yo‘lida yozilgan bo‘lib, ashula yo‘liga xos shaklga, ichki qonuniyatlari va usullarida ifoda etiladi. Shu bois xat shakli daromad, miyonxat, dunasr, avj, namud kuylanishi va furovarddan iborat bo‘lib, yettita (I, II, III, IV, V, VI, VII) xatni o‘z ichiga oladi. Husayniy Dugoh sho‘basi Dugoh maqomi tarkibida bo‘lganligi uchun Dugoh pardasi (re-miksolidiy) ga moslashtirilgan. Re pardasi tayanch parda hisoblanadi. Tayanch parda – bu musiqiy asarda yoki maqomda asosiy ohang va uyg‘unlikni belgilaydigan, boshqa tovushlarga nisbatan barqarorlik beruvchi muhim parda (tovush). Tayanch parda kuy yoki ashulaning boshlanishi, rivoji va yakunida asosiy o‘rinni egallaydi.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridagi Dugoh Husayniy I maqomi O‘n ikki maqom tarkibidagi Husayniy maqomi (sol-miksolidiy) ning pardasiga moslashtirilgan bo‘lib, tayanch pardasi sol hisoblanadi. Dugoh Husayniy I O‘n ikki maqomning Husayniy maqomi pardasiga mos keladi. Dugoh Husayniy I o‘lchovi 2/4 va doira usuli soddalashtirilgan Saraxbor usulida, 10 ta takt cholg‘u muqaddima takt oldi bilan boshlangan.

Xatlar bo‘yicha Husayniy Dugoh va Dugoh husayniy I shakl farqlarini sho‘ba ichki qismlari misolida quyidagi jadvalda ifodalash maqsadga muvofiq:

1-jadval.

	Husayniy Dugoh	**Dugohi Husayniy I**
cholg‘u muqaddima	10 ta takt	11 takt
Daromad	1 ta xat (2 ta nimxat)	2 ta xat (4 ta nimxat)
Miyonxat	2 ta xat (4 ta nimxat)	1 ta xat (4 ta nimxat)

6 Tojiboyev Mahmudjonning karantin vaqtlarida ijtimoiy tarmoqlarda maqom tahlillari haqidagi darsliklaridan.

Dunas	1 ta xat (2 ta nimxat) dugoh namudi	2 ta xat (4 ta nimxat)
Avj	2 ta xat, dunasr namudi (4 ta nimxat)	1 ta xat (2 ta nimxat)
Furovard	1 ta xat (4 ta nimxat)	1 ta xat (2 ta nimxat)

Ilmiy izlanishlar davomida is'temolda ya'ni hozirgi kunda konsert dasturlari va imtihon jarayonlarida Shashmaqom tarkibidagi nasrlar bo'limi birinchi guruh sho'balari orasidagi Husayniy Dugohning ikki taronasi ijro etilyotganligining ekanligini amini bo'ldik.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tahlildan kelib chiqib ikki sho'baning farqlarini va o'xshashligini aniqlasak bo'ladi. Shakl tuzilmasi jihatdan Husayniy Dugoh sho'basi murakkabroq bo'lib namudlar ham keng qo'llanilgan. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari o'zining soddaligi, xalqchilligi bilan ajralib turishi yuqoridagi asarlar tahlilida ham o'z tasdig'ini topadi. Ikki sho'ba ham VII xatdan iborat, shakl va hajm jihatidan deyarli farq qilmaydi. Tuzilish asoslari umumiy, kuy yo'li bir-biriga juda ham yaqin. Ammo sho'baning shakl qismlarida xatlarning joylashuvi farq qiladi, yuqoridagi jadvalda buni yaqqol ko'rish mumkin. O'lchov va doira usullari turlicha bo'lib, aruz vaznida ham farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori: https://lex.uz/docs/-3581613?ONDATE=03.02.2022
1. Abdullayev R. *An'anaviy o'zbek musiqa asoslari//darslik.* – Toshkent: "Musiqa" 2022.
2. Ayxodjayeva Sh. *O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi//o'quv qo'llanma*, – Toshkent: 2023..
3. Tojiboyev Mahmudjonning karantin vaqtlarida ijtimoiy tarmoqlarda maqom tahlillari haqidagi darsliklaridan.

4. Қаранг: Юнусов. Р. Ўзбек мақомлари . — Т., “Ўзбекистан” нашрёти., 2018. — 44 б.
5. Ражабов И. – Шарқ мусиқа атамаларининг қисқача луғати. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир Юнусов. Р. - Тошкент. Тамаддум нашрёти. 2023. 62-бет.
6. Ражабов. И. Мақомлар. Нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир Иброҳимов. О. – Ташкент: “Санъат”. 2006.103. –б.